



AVTOSERVIS ISHCHILARINI MAXSUS KIYIM MATOLARINING FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

Nuriddinova Rohila Pazlitdin qizi

Namangan davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Avtomatlashtirilgan manzilli loyihalashning taklif qilingan algoritmiga ko‘ra materiallar axborot bazasini shakllantirish uchun respublikada maxsus va firmali kiyimlarni ishlab chiqaradigan Toshkent shahridagi “Liniya zaщitы” va Namangan shahridagi “Golden ring” korxonalarida keng foydalanilayotgan zamonaviy materiallar bo‘yicha ma‘lumotlar o‘rganildi.

Annotatsiya: To form a materials database according to the proposed algorithm of automated targeted design, information on modern materials widely used in the republic was studied at the enterprises "Liniya zaщitы" in Tashkent and "Golden Ring" in Namangan, which produce special and branded clothing.

Аннотация Для формирования материально-информационной базы по предложенному алгоритму автоматизированного адресного проектирования широко используются сведения о современных материалах на предприятиях «Линия защиты» в Ташкенте и «Золотое кольцо» в Намангане, выпускающих специальную и брендовую одежду в республике. , был изучен.

Avtomatlashtirilgan manzilli loyihalashning taklif qilingan algoritmiga ko‘ra materiallar axborot bazasini shakllantirish uchun respublikada maxsus va firmali kiyimlarni ishlab chiqaradigan Toshkent shahridagi “Liniya zaщitы” va Namangan shahridagi “Golden ring” korxonalarida keng foydalanilayotgan zamonaviy materiallar bo‘yicha ma‘lumotlar o‘rganildi. “Liniya zaщitы” korxonasi nafaqat respublikamiz, balqi chet el mamlakatlariga buyurtma asosida turli vazifadagi maxsus kiyimlarni tayyorlab kelmoqda. Ushbu korxonada turli omillardan himoyalovchi materiallar namunalari kataloglari mavjudligi va ularning narxlari qimmat (40 mingdan 80 ming gacha) ekanligi kuzatildi. 3.1-jadvalda turli himoya materiallarining

nomi, ishlab chiqaruvchi mamlakat, himoya ko'rsatkichlari bo'yicha oxorlash turi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Materiallar aralash tolali, asosan poliestr, poliefir tolasi aralash paxta tolali matolar, bunda paxta tolasi nisbatan kam, matolarning yuza zichligi esa turlicha - 180 g/m²dan 460 g/m² gacha ekanligi aniqlandi.

Maxsus kiyimlarni tayyorlashda keltirilgan korxonalarda o'z faoliyati davomida buyurtma asosida, asosan Xitoy Respublikasida ishlab chiqarilayotgan turli omillardan himoyalovchi materiallaridan foydalanilayotganligi kuzatildi. Ushbu korxonalar buyurtmachi korxonalarining himoya topografiyasi ko'rsatilgan maxsus kiyim texnik eskiziga muvofiq himoya materiallarini qo'llash bo'yicha topshirig'iga asosan buyurtmani bajaradi. Respublikamiz avtoservis korxonalari ushbu korxonalarining doimiy buyurtmachisi ekanligi va maxsus kiyimlar eskizi (buyurtmachi korxonaning maxsus kiyimlarga qo'yiladigan talablari asosidagi fikrlarini inobatga olgan holda) birgalikda ishlab chiqilishi, biroq kasb lavozimlariga ko'ra maxsus kiyim dizaynining yaratilmasligi hamda himoya materiallaridan foydalanilmasligi aniqlandi. Avtoservis korxonalarining maxsus kiyim narxiga ko'ra talablari bo'yicha turli tarkibli matolardan foydalanilishi, bunda maxsus kiyimlarning himoya vazifasi qo'shimcha detallar, qoplama cho'ntaklar evaziga kuchaytirilishi bilan izohlandi.

3.2-jadvalda turli davlatlarda ishlab chiqirilgan matolarning fizik mexanik ko'rsatkichlari keltirilgan bo'lib bunda matoning havo o'tkazuvchanligi, uzilishdagi uzayishi, pishiqligi, rang mustahkamligi va matoning yuza zichliklari ko'rsatkichlari keltirilgan.

3.1-jadval

Turli davlatlarda ishlab chiqirilgan matolarning fizik mexanik ko'rsatkichlari

Material nomi	Ishlab chiqaruvchi mamlakat	Tola tarkibi, %	Qalinligi mm	Xavo	Uzulishdagi	Uzulishdagi	Rang mustahkamligi etalon baho	Yuza zichligi, g/m ²
---------------	-----------------------------	-----------------	--------------	------	-------------	-------------	--------------------------------	---------------------------------



Challenger	Xitoy	20 paxta 80 poliefer	0,5	3,75	15	10	3	250
Xisimua	Xitoy	20 paxta 80 poliefer	0,5	3,5	17	13	3,5	220
Kintaxiy	Xitoy	20 paxta 80 poliefer	0,5	3,5	18	15	3,5	230
Megates	Italiya	35 paxta 65 poliefer	0,5	3	19	16	3	245
Hidrosafe	Angliya	35 paxta 65 poliefer	0,5	3	15-	17	3	250
Mewatk	taliya	18 poliefer 80 paxta 2 karbon	0,7	4	10	8	5	350
Kintaxiy	Xitoy	100 poliefer	0,6	6,5	20	15	5	255
Hidrosafe	Angliya	2 karbon	0,5	5,75	10	12	6	255



		98 poliefer						
Xinsakio	Xitoy	35 paxta 65 poliefer	0,5	3	15	13	3	230
Kixakio	Xitoy	35 paxta 65 poliefer	0,5	3	20	15	3	230
Knso	Xitoy	35 paxta 65 poliefer	0,5	3	18	15	2,5	230
Knsio	Italiya	18 poliefer 80 paxta 2 karbon	0,7	4,25	10	8	5	350
Xisimua	Xitoy	20 paxta 80 poliefer	0,4	4	17	15	3,5	220
Foreman Komfort	Xitoy	30 paxta 70 poliefer	0,5	3,5	18	15	3	240
Xisimuats	Xitoy	25 paxta	0,4	4	18	15	3,5	220

		75 poliefer						
--	--	-------------	--	--	--	--	--	--

3.2-jadval

Turli davlatlarda ishlab chiqrilgan xususiyat berilgan matolarning fizik mexanik ko'rsatkichlari

Material nomi	Ishlab chiqaruvchi	Mamlakat	Tola tarkibi, %	Qalinligi mm	Xavo	Uzlishdagi	Uzlishdagi (tando)	Rang mustahkamligi etalon baho	Yuza zichligi, g/m ²
Kintaxiy	WP	XXR	30 paxta 70 poliefer	0.4	3,5	19		15	4
Xisimua	WR	XXR	25 paxta 75 poliefer	0.4	4	20	17	4	245
Kintaxiyts	WR	XXR	30 paxta 70 poliefer	0.4	3,5	20	15,5	4	240
Megates	WR	XXR	35 paxta 65 poliefer	0.4	3	16	15	4	220
Megates	WR	XXR	40 paxta	0.5	2,5	20	19	3	320




			60 poliefer						
Mewatk	WR	XXR	20 poliefer 80 paxta	0.5	4	17	15	3,5	235
Herkules	WR	XXR	20 poliefer 80 paxta	0.5	4	18	15	3,5	250
Megates	WR	XXR	35 paxta 65 poliefer	0.4	3	19	16	4	220
Sonsordia	WP	XXR	30 paxta 70 poliefer	0.4	4	19	17	4	235
Hidrosafe	WR	XXR	35 paxta 65 poliefer	0.4	3	19	15,5	3	360
Klopman	WR	XXR	35 paxta 65 poliefer	0.4	3	19	15	4	245
Tomboy	WR	XXR	40 paxta 60 poliefer	0.5	2,5	20	17	3	320




Herkules	WR	XXR	25 paxta 75 poliefer	04	3,5	20	18	3	270
Gemini	WR	XXR	40 paxta 60 poliefer	0.5	2,5	20	18	3	320
Challenger	WR	Angliya	2 karbon 98 poliefer	0,5	6	19	17	6	255

Mehnat sharoitiga muvofiq odam qomati yuzasini himoyalash topografiyasi haqidagi ma'lumotlarga asoslanib maxsus kiyimlarni tayyorlash jarayonida texnologik shartlarning muvofiqligini ta'minlash hamda ekspluatatsiya jarayonidagi kiyim shaklining (tashqi ko'rinishi) saqlanishi kabi omillarni inobatga olgan holda himoya materiallarining xossalariga yaqin yoki aksincha asosiy material xossalariga yaqin bo'lgan himoya materiallarini tanlash kabi vazifalarni yechishni talab qiladi.


“Liniya zashiti” MChJ va Namangan shahridagi maxsus kiyim ishlab chiqaruvchi “GOLDEN RING” korxonalaridagi 50 dan ortiq materiallar tanlandi, asosiy xossalari: havo o'tkazuvchanligi, yuza zichligi, qalinligi, rang mustahkamligi, matoning uzilish kuchi, bo'yicha tajriba sinov tadqiqoti olib borildi [89]. Tajribalar Namangan muhandislik texnologiya institutining “To'qimachilik-trikotaj maxsulotlarini sinash” laboratoriyasi hamda Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining “SENTEX” laboratoriyalarida o'tkazildi. Quyida avtomobil va avtoservis korxonalarida ishchilari uchun foydalanilayotgan himoya materiallarining fizik-mexanik xususiyatlari bo'yicha tajribalar natijalari keltirilgan.




3.1-rasm. Uzilishdagi uzayish bo'yicha sinova natijalari




3.2-rasm. Havo o'tkazuvchanlik bo'yicha sinova natijalari



3.3 - rasm. Yuza zichlik bo'yicha sinova natijalari



3.4 – rasm. Qalinlik bo'yicha sinova natijalari





3.5 – rasm. Rang mustahkamligi bo'yicha sinova natijalari

3.3-jadvalda avtoservis ishchilari uchun tavsiya etiladigan oleofob xususiyatli himoya materiallarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari keltirilgan. Himoya materialining texnik pasport bo'yicha ko'rsatkichi va tajriba natijalari orasida yuza zichligi bo'yicha tavofutlar aniqlandi. Tajriba natijalariga ko'ra "Foreman Komfort" gazlamasi (98% paxta, 2% karbon tarkibli) yuza zichligi pasport ko'rsatkichidan yuqori, "Tomboy FS" gazlama turlarida (80% paxta, 18% poliefir, 2% karbon tarkibli) esa aksincha – sezilarli darajada pastligi (84 g/sm²ga) aniqlandi. "CD20", "CDP20" gazlamalarida esa deyarli pasport ko'rsatkichlariga yaqinligi aniqlandi. Gazlamalarning tolaviy tarkibi uning havo o'tkazuvchanlik ko'rsatkichiga ta'siri aniqlandi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi uchun maxsus kiyim assortimentlariga ko'ra materiallar bo'yicha axborot banki shakllantirildi. Maxsus kiyim uchun tanlangan asosiy mato tolaviy tarkibi, yuza zichligi va havo o'tkazuvchanligi ko'rsatkichlariga yaqin bo'lgan himoya materialini qo'llash maxsus kiyimning ekspluatatsion ishonchligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Н.К. Воропаева. Разработка метод проектирования фирменной производственной одежды дис..док. техн. наук: ТИТЛП, Москва 2004. - 248 с
2. М.А.Абдукаримова, Ш.А.Махсудов, Д.А.Хакимова Кийимларни конструкциялашнинг автоматлаштирилган усулларини такомиллаштириш аспектлари // Наманган-муҳандислик технология институти Илмий-техника журнали, 2020 йил, Том 5-Махсус сон №1. 49-55 б. (05.00.00; №33)
3. Афиногентова Н.В. Исследование и разработка спецодежды для рабочих автомобильной промышленности: диссертация кандидата технических наук: 05.19.04. Москва, 2004. -230 стр.



4. Мамасолиева Ш. Л. Юқори гигиеник ва эксплуатацион хусусиятли махсус кийим ишлаб чиқариш технологиясини такомиллаштириш. Дис. PhD. (PhD). Тошкент – 2023.й. 101 б.
5. Хакимова D.A. VSN 108-15 «Инструкция по изготовлению и использованию комплекта защитных одежд для специалистов автомобильных дорог», Научно-исследовательский институт автомобильных дорог, Т., 2015 г., 90 с.
6. Тарасенко С.Л. Обоснование защитных свойств спецодежды горнорабочих с учетом условий труда: диссертация ...кандидата технических наук: 05.19.04. Макеевка, 2018. -202 стр.
7. Михайлова В.Н. Методология комплексной оценки качества спецодежды горнорабочих для защиты от неблагоприятного воздействия пониженных температур: автореф. дис. канд. техн. наук: 05.19.04. Москва, 2010. -39 стр.
8. Сорокина Д.Н. Разработка и исследование специальной теплозащитной одежды с теплоаккумулирующим материалом: автореф. дис. канд. техн. наук: 05.19.04. Шахты, 2012. -22 стр.
9. Кокина Д.С. Совершенствование процесса и методов проектирования одежды сотрудников отряда специального назначения: диссертация ...кандидата технических наук: 05.19.04. Москва, 2019. -18 стр.
10. Попадьюко Е.А. Разработка технологии проектирования кислотозащитной одежды для работников химических предприятий: автореф. дис. канд. техн. наук: 05.19.04. Москва, 2008. -17 стр.
11. Загоруйко М.В. Бесшапошникова В. И Косыгина А.Н. Анализ ассортимента огнезащитных текстильных материалов и их классификация с 64.
12. О. Н. Микрюкова, В. А. Штейнле, С. Н. Иванова, М. В. Загоруйко В. И. Бесшапошникова В.И. Анализ требований и оценка значимости показателей качества огнезащитных 63 тканей., с 80-86.
13. А.Ф. Давыдов, С.В. Кудринский., Фгбоу во 52 определение теплопередачи при воздействии пламени на ткани для спецодежды работников нефтегазовых комплексов, на основе разработанного экспресс-метода с 88 93.